

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI
LOYIHALASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI****Po'latova Qunduz Asad qizi***Buxoro innovatsiyalar universiteti magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kasbiy kompetentlik, kasbiy o'z-o'zini anglash, kasbiy qadriyatlarni hurmat qilish va kasb-hunarga yo'naltirish –bu o'sib kelayotgan yosh avlodning kasbiy shakllanishi, tug'ma layoqatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish misolida namoyon bo'ladigan umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan umumlashtiruvchi tushunchadir. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bu – kasbiy masalalarni hal etishda amaliy tajriba va bilim asosida muvaffaqiyatli harakat qilishini ta'minlashdir.*

Kalit so'zlar: *Kasbiy kompetentlik, o'z-o'zini anglash, tug'ma layoqat, sinash, tanlash, komil inson, ish faoliyati, oliy ta'lim, pedagogik-psixologik, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy - pedagogik.*

Respublikamizda yoshlarning intellektual salohiyatini mustahkamlash, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Chunki zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib

kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, o'z maqsadiga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash bugunning eng muhim vazifalaridan biridir. Kasbiy kompetentlik, kasbiy o'z-o'zini anglash, kasbiy qadriyatlarni hurmat qilish va kasb-hunarga yo'naltirish –bu o'sib kelayotgan yosh avlodning kasbiy shakllanishi, tug'ma layoqatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish misolida namoyon bo'ladigan umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan umumlashtiruvchi tushunchadir. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bu – kasbiy masalalarni hal etishda amaliy tajriba va bilim asosida muvaffaqiyatli harakat qilishini ta'minlashdir. Kasbiy kompetensiya va kasbiy o'zlikni anglash butun umr davom etadigan jarayon hisoblanib, inson orzu qilish, sinash, tanlash ularni amalga oshirish bosqichlaridanoq kasb-hunar tanlaydi, so'ngra kasb-hunarga kirishadi, keyinroq dunyodagi kasb-hunarlarni o'zgarishiga, o'zidagi o'zgarishga, mehnatga bo'lgan munosabatini o'zgarishiga bog'liq ravishda kasbini yoki mutaxassisligini o'zgartiradi. Komil inson g'oyasi ham milliy, ham umumbashariy ahamiyatga molik bo'lib, o'zida ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan, insonni ezgu maqsadlari sari undaydigan oliyjanob g'oyadir.

Zamonaviy o'qituvchi obrazida komillik mujassamlashishi lozim. Bugungi kun o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish–bu uning kunlik layoqatini, ish faoliyatini samaradorligini oshirishdan iborat. Ish faoliyatida kasbiy mahoratni shakllantirish bilan bog'liq muammolarni o'rganish va hal etish, kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish orqali malakali mutaxassislarni tayyorlash mumkin. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish zaruriyati ta'lim muassasasiga va o'qituvchilarga qo'yilgan ijtimoiy

talablarning o'sishi bilan asoslanadi. Oliy ta'lim sohasida ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilash, undagi talablarga javob beradigan jihatlarni hamda mavjud kamchiliklarni va bo'shliqlarni aniqlash asosida ta'lim berishga bo'lgan haqiqiy ehtiyojlarni belgilash amalga oshiriladi. Shu asosida innovatsiyalarni hayotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa pedagogik kompetensiyani rivojlantirishga olib keladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini aniqlash uchun ushbu tushunchani o'rganishga bag'ishlangan ba'zi bir tadqiqotlarga e'tiborni qaratamiz. Kasbiy kompetensiya pedagogik muammo sifatida o'rganilgan tadqiqotlarda asosan, o'qituvchining xususiyatlari tahlil qilingan. V.I. Baydenko *«kasbiy kompetentlik»* tushunchasini quyidagicha tavsiflagan:

- O'z mutaxassisligi bo'yicha faoliyat yuritish uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarga, kasbiy muammolarni qisman hal etishda bir vaqtda avtonomlik va egiluvchanlik xususiyatlariga ega bo'lish;

- kasbiy shaxslararo muhitda hamkasblar bilan hamkorlikni rivojlantirish; faoliyat mezoni (sifat o'lchovi), qo'llash sohasi, talab etiladigan bilimlarni o'z ichiga olgan standartlarni loyihalash tuzilmasi;

- ish beruvchi talablariga ko'ra kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish imkonini beruvchi qobiliyatlardan samarali foydalanish;

- insonga hozirgi zamon mehnat muhitida ish faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish imkonini beruvchi bilimlar, xususiyatlar va ko'nikmalarning integrallashgan birlashuvi⁷.

Yuqorida keltirilganlarni umumlashtirgan holda V.I. Baydenko kasbiy kompetentlikni faoliyat talablariga mos ravishda harakat qilishga, masala va muammolarni mustaqil hal etishga, shu bilan birga o'z faoliyati natijalari, ya'ni mos ko'nikmalar, texnik usullarni baholay olishga tayyorligi va qobiliyati sifatida tushunadi.

O.V. Xovovning fikriga ko'ra, kasbiy kompetentlik - bu nafaqat malaka, ya'ni faoliyat tajribasi, ko'nikma va bilimlar sifatida kasbiy malaka haqidagi, balki kasbiy faoliyatda mustaqillikni ta'minlovchi ijtimoiy-kommunikativ va individual qobiliyatlar haqidagi tasavvurlardan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Байденко В.И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования ГОСВПО нового поколения. - М. - 2006. - 72 с .

2. Ларионова Г. А. Компетенции в профессиональной подготовке студентов вузов: знания, действия, деятельность, самоопределение: монография. - Челябинск. - 2004. - 171 с.

3. Махмудов А.Х. Таълим тизимида компетентлик асосида ёндашувнинг дидактик жиҳатлари // «Уқитувчиларнинг касбий маҳоратини оширишда инновация технологияларининг аҳамияти» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. - Тошкент. - 2012. 44-47 бетлар.

⁷.Байденко В.И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования ГОСВПО нового поколения. - М. - 2006.